
YERGA BARAKA URUG'I QADALDI

Xalqimiz orziqib kutgan qadimiy, azaliy bayramimiz - Navro'z ayyomi arafasida tumanimizda yerga baraka urug'i qadash ishlari ham boshlanib ketdi. Shu munosabat bilan Garimdon qishlog'ida seminar-yig'ilish o'tkazildi. Tadbirda tumandagi MMTPlar, fermer xo'jaliklari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdilar.



Seminarni tuman hokimi I. Novikov kirish so'z bilan ochib, 2020 yilda paxtadan mo'l hosil yetishtirishda qishloq xo'jaligi mehnatkashlari oldida turgan vazifalar haqida gapirdi.

Chigit ekishga bag'ishlangan ushbu tadbirda ishtirok etayotgan nuroniy otaxonlar oq

fotihalarini berishib, boshlanayotgan ekin-tikin ishlariga baraka va unum tiladilar.



Shundan keyin "Mamatxalilov Abdubannob yeri" fermer xo'jaligi yerlariga baraka urug'i qadalib, chigit ekish ishlari boshlanib ketdi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati